

**XORAZM VOHASI SHAROITIDA MOSHNING DURDONA NAVINI  
MAKKAJO’XORI BILAN ARALASHTIRIB EKISHNING  
AFZALLIKLARI**

*<sup>1</sup>Babadjanova Shirin Kadamovna, Ruzimova Laylo Shuxratovna<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup> Urganch davlat universiteti dotsenti, [shirinka\\_74@mail.ru](mailto:shirinka_74@mail.ru)*

*<sup>2</sup> Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar xalq xo'jaligining barcha sohaları qatori qishloq xo'jaligiga ham katta e'tibor berib, uning barcha tarmoqlari va sohalarida yangi sifat holatiga o'tishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligida bunday sifat o'zgarishlaridan biri aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarida oqsilning yetarli bo'lishini ta'minlashdir. Aholining oqsilga bo'lgan talabini qondirish, ozuqa oqsili muammosini to'la hal etish maqsadida tarkibida oqsil moddasi ko'p bo'lgan ekinlarni serhosil navlarini yetishtirishni ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlaridan keyin sof boy holdagi azotni qoldirib, tuproq unumdorligini oshiradi hamda yerdan unumli foydalanib mo'l-ko'l hosil yetishtirish imkoniyatini beradi (Atabayeva,2006; Yormatova,2008).

Keyingi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari va chorvachilik uchun em-xashak bazasini ishlab chiqarishning o'sishi mosh va makkajo'xori yetishtirilishni kengaytirishni taqozo etmoqda. Mosh ildizining xususiyati va ularda tugunak bakteriyalarining mavjudligi ushbu o'simlikni azot o'zlashtiradigan o'simliklar qatoriga kiritadi, bu esa keyingi o'simlik uchun azotli o'g'itlarga sarflanadigan moliyaviy vositalarni kamaytirish imkonini beradi.


Mosh burchoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik dukkakli ekin hisoblanadi. Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda har yili takroriy ekin sifatida iqtisodiy jihatdan foyda keltiruvchi, oqsilga boy va chorva mollari uchun esa to'yimli yem-xashak bazasini yaratish kerak.

So'ngi yillarda respublikamizda aholini o'z mamlakatimizda yetishtirilgan don mahsulotlari bilan to'la ta'minlash maqsadida kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlarda takroriy ekin sifatida dukkakli don ekinlarini makkajo'xori bilan aralashtirib yetishtirishga alohida e'tibor berilmoqda Ekinlar strukururasining o'zgarishi dukkakli-don ekinlaridan yuqori sifatli hosil etishtirish uchun intensiv texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Shunday texnologiyalardan biri sug'oriladigan maydonlarda ekilgan boshhoqli don ekinlarini yig'ishtirib olingandan so'ng, bo'shagan maydonlarda mosh va makkajo'xorini ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida ekib, don etishtirishni ko'paytirishdan iborat. Aralash ekishda ikki yoki bir necha ekinning urug'lari bevosita ekish oldidan aralashtiriladi yoki har bir ekin alohida ekiladi, bunda

bir maydonga urug’lar ikki marta ekiladi. Bunda qo’shqator qilib birinchisiga mosh qatorlab ekilsa, ikkinchisiga makkaj’xori ekiladi. Misol uchun, makkajo’xori va moshni ekishda shu usul qo’llaniladi. Bunday ekish usuli oziqa ekinlarining oziqaviy qimmatini va tarkibidagi oqsilni oshirishda qo’llaniladi.

Kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida mosh va makkajo’xori yetishtirish bo'yicha dala tajribasi Xorazm vohasi o'tloqi allyuvial tuproq sharoitida olib borildi. Sho'rlanish darajasi bo'yicha tuproq kam sho'rlangan ( $E_{Ce}=3,21ds/m$ ). Kuzgi bug'doy yig'ishtirib olingandan keyin moshning “Durdon” navi 16 kg/ga me'yorda, makkajo’xorini tezpishar “Moldova 257 ASB” navi ekildi. Variantlar dala maydonida uch takrorlanishda va random usulida joylashtirildi. Ekish 60x30 sm qo'shqator qilib ekildi. Hosil miqdori amaldagi usulnomalarga asosan aniqlandi.


Izlanishlarda o'simliklarning barg sathi LI-COR 3100 uskunasi yordamida o'lchandi. Qator orasi 60x30 sm qo'shqator qilib ekilganda BSI moshda  $0,98m^2/m^2$  ni tashkil qildi (1-rasm). BSI moshda  $2,5 m^2/m^2$  va  $2,8 m^2/m^2$  ni tashkil etdi. Makkajo’xorining asosiy rivojlanish davrlarida o’simliklar quruq modda to‘plashi va oziqa moddalarni o‘zlashtirish qonuniyatlarini o‘rganish maqsadida tajribaning uch qaytarilishining hamma variantlaridan o’simlik namunalari olindi. Bunda o’simlik namunalari  $1 m^2$  maydondan olinib, ular a'zolarga bo‘linib termostatda  $65-70^0 C$  quritiladi va og‘irligi o‘lchandi. Quritilgan o’simlik namunalari tarkibida umumiy NPK miqdorlari Ginzburg, Sheglova va Vulfius usulida aniqlandi.



1-rasm.Moshning barg sathini o'suv davrlari bo'yicha o'zgarishi



2- rasm. Moshning dukkaklarini ko'rinishi



3- rasm. Makkajo'xorini o'suv davrlari bo'yicha barg sathi dinamikasi



4- rasm. Makkajo’xori va moshning osuv dinamikasi

### **XULOSA**

Moshdan oziq-ovqat, makkajo’xorini chorvachilik uchun yem-hashak bazasi uchun asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish ekinlar diversifikatsiyasiga yordam beradi va qisqa davr ichida daromad keltiradi. Ishlab chiqish sanoatini rivojlantirish fermerlarning daromadini va aholining farovonligini oshirish uchun mahalliy bozor va eksport potentsialiga yo‘naltirilgan istiqbolga egadir.

Bu navlar yozgi ekish mavsumlarida ekishga yaroqli bo‘lib, ulardan yuqori hosil olish mumkin. Ular industrial tipidagi navlar bo‘lib, mexanizatsiya usulida hosilni yig‘ishga yaroqlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mavlyanova R.F., Sulaymonov B.A., Boltaev B.S., Mansurov X.G., Kenjabaev Sh.M. Mosh yetishtirish texnologiyasi. Tavsiyanoma.- “NAVROZ” nashriyoti, Toshkent-2018.
2. J.B. Xudayqulov, A. R. Anorbayev, X.A. Idrisov. Mosh yetishtirish. “TASVIR” nashriyoti, Toshkent-2021.
3. H. Atabayeva, O. Qodirho’jayev”Osimlikshunoslik” Toshkent 2006
4. A. Polthanle and A. Kotcnasatit “Growth, Yield of Mungbean” Pakistan Journal of Biological Sciences 1999
5. SarwarJahon and Abdul Hamid”Effect of Density and planting Configutation on Canopy Development and reproductive effort in Mungbean(Vignaradiata(L) Bangladesh 2006